

O'ZBEKISTONDA MUSTAQILIKDAN KEYINGI TA'LIM ISLOHOTLARI

Ramazonov Islom Abrayqul o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7623936>

Annotatsiya. *Ma'naviy - ma'rifiy sohadagi yutuqlarimiz ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xalq ta'limini isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash sohasida muhim chora - tadbirlar amalga oshirildi. Yangi oily va o'rta ta'lim o'quv yurtlari tashkil etilib bilimlarning yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Chunki zamon talablariga javob beradigan, ilg'or fan - texnika, texnologiya yutuqlarini egallab olgan kadrlarni yetishtirmasdan jamiyatni yuksaltirib bo'lmaydi.*

Kalit so'zlar: *kadrlar tayyorlash, o'rta-maxsus ta'lim, kasb-hunar ta'limi, 2017-yilgi islohotlar, kompensatsiya, Shukshunov*

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ ПОСЛЕ ОБРЕТЕНИЯ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация. *Наши достижения в духовно-просветительской сфере ярко отражаются в коренных изменениях в системе образования. Важные меры были предприняты в области реформирования народного образования и укрепления системы подготовки кадров. Созданы новые семейные и средние образовательные учреждения, начата подготовка кадров в новых областях знаний. Потому что невозможно улучшить общество без подготовки кадров, отвечающих требованиям времени, освоивших достижения передовой науки и техники.*

Ключевые слова: *подготовка кадров, среднее специальное образование, профессиональное образование, реформы 2017 года, компенсация, Шукшунув.*

EDUCATIONAL REFORMS AFTER INDEPENDENCE IN UZBEKISTAN

Abstract. *Our achievements in the spiritual and educational sphere are clearly reflected in fundamental changes in the education system. Important measures were taken in the field of reforming public education and strengthening the personnel training system. New family and secondary educational institutions were established and personnel training in new fields of knowledge was launched. Because it is impossible to improve the society without training personnel who meet the requirements of the time, who have mastered the achievements of advanced science and technology.*

Key words: *personnel training, secondary special education, vocational education, 2017 reforms, compensation, Shukshunov*

Hamamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.

Shavkat Mirziyoyev

O'zbekistonda 1992-yil 2-iyulda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bu qonunda pedagog xodimlarning burch va mas'uliyatlari aniq belgilab berildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida 10 mingdan ortiq xalq ta'limi xodimiga davlat uylari, 22 mingdan ortiq xodimga esa tashkilot va muassalar tasarrufidagi uylar bepul xususiyashtirilib berildi. 50 mingdan ortiq

pedagog xodimga shaxsiy qurilish uchun yer maydonlari ajratildi. Qishloqlarda yashovchi pedagog xodimlar komunal to'lovlardan ozod etildi. Shaharlik pedagoglar esa 50 foiz to'lab bordilar. Keyinchalik ushbu imtiyozlar oylik- maoshlariga qo'shib beriladigan kompensatsiya bilan almashtirildi. 1992-yildagi qonun asosida umumiy ta'lim quyidagi bosqichlar bo'yicha amalga oshirila boshlandi.

I bosqich – boshlang'ich ta'lim (1-4-sinf);

II bosqich – asosiy (tayanch) maktab (4-9-sinf);

III bosqich – yuqori o'rta maktab (10-11- sinf);

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yilgi dekabrda qaratilgan qarori bilan 1-oktabr – “O'qituvchilar va murabbiylar kuni” deb belgilandi hamda bu kun bayram sifatida dam olish kuni deb e'lon qilindi. 1997-yildan boshlab har yili 1-oktabr “O'qituvchilar va murabbiylar kuni” sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Birinci Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan ta'limni tubdan isloh qilish yo'llari ishlab chiqildi. 1997-yil 29-avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi yangi tahrirdagi qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da o'z aksini topdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi.

Birinci bosqich – 1997-2001-yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Buning uchun davlat tomonidan qo'shimcha ravishda 65 milliard so'm mablag' sarf qilindi.

Ikkinchi bosqich – 2001-2005-yillarni o'z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi. Ushbu yillarda milliy dastur to'liq ro'yobga chiqarildi, mehnat bozorining rivojlanishi va mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda dasturga aniqliklar kiritildi.

Uchinchi bosqich – 2005-yildan bugungi kungacha. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi natijasida erishilgan natijalar, to'plangan tajribalar umumlashtirilib, shu asosda yurtimizda ta'lim tizimi takomillashtirilib borildi. 2009-yildan boshlab yurtimizda to'liq 12 yillik majburiy ta'lim joriy etildi. Bu esa 9 yillik umumta'lim maktab bosqichi va 3 yillik o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim bosqichini o'z ichiga olgan uzluksiz ta'lim tizimi edi. Bolalar birinchi sinfga 6-7 yoshidan qabu qilinadi. 2001 yilda respublikamizda 9727 ta umumta'lim maktablarida 440 762 nafar o'qituvchi 6,3 mln o'quvchiga ta'lim berdi. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha barcha o'quv fanlaridan Davlat standartlari ishlab chiqildi va ular 346 maktabda tajribadan o'tkazildi, a'lim jarayoniga joriy etildi. Davlat ta'lim standartlariga mos o'quv dasturlari va darsliklari yaratildi.

2004-yil 19-fevraldagi Prezident Farmoni va 2004-yil 9-iyuldagi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida 2004-2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi qabul qilindi. Dasturga binoan 2004-2013-yillarda 9765 maktabning 4147 tasida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi va 3225 ta maktab rekonstruksiya qilindi. 424 ta yangi maktab, sport zallari qurildi. Ayni paytda, maktablarni o'quv laboratoriya jihozlari, mebellar, kompyuter texnikasi bilan ta'minlashda alohida e'tibor qaratildi. O'quvchilar darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanmoqda. 1-chi sinfga qabul qilingan o'quvchilarga Prezident sovg'asi sifatida 12 xildagi o'quv qurollari va o'quvchi sumkasidan iborat sovg'alar topshirilmogda.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuniga muvofiq umumiy o'rta ta'limning to'qqiz yillik etib belgilanishi munosabati bilan to'qqiz yillikni bitirgan barcha o'quvchilar ta'lim olishni o'rta maxsus yoki kasb-hunar kollejlarda davom ettirdilar. Bu yangi

ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tildi, ya'ni Kadrlar tayyorlash milliy dasturining I-bosqichi (1997-2001) doirasida amalga oshirildi. Shu davr mobaynida 300 ga yaqin yangi turdagi ta'lim muassalari ochildi. O'rta maxsus ta'lim sohasida viloyatlarda biznes maktablari, umumta'lim maktablarida kasb-hunar kurslarining ochilishi, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda yangi mutaxassisliklar (fermer, soliq, bojxona xodimi va hokazo) kiritildi. Unga binoan, yurtimizda 1997-yildan boshlab hozirga qadar 1400 dan ortiq kasb-hunar kolleji, 200 ga yaqin akademik litsey bunyod etildi. Ular sohalar bo'yicha mutasaddi tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalariga birlashtirilishi tufayli bu bosqichda o'quv jarayoni samarali tashkil etilib, kollej bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratilganiga qaramay, bu borada qoniqarli natijaga erishilmadi.

2012-yil 21-mayda Vazirlar Mahkamasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Mazkur hujjat ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibini belgilaydi hamda o'quvchilarning sifatli ta'lim olish, davlat va jamiyat manfaatlarini yo'lida o'quvchi yoshlarning cog'lig'ini saqlashda xavf-xatarlarni kamaytirish, ta'lim olishga bo'lgan koinstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashga yo'naltirilgan. Unga ko'ra, ta'lim muassasalariga kirib kelishda har bir o'quvchi, o'qituvchilar va boshqa shaxslar uyali aloqa vositasini to'liq o'chirib qo'yishi shart.

2016-yil 7-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktsbgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda attestatsiyaning amal qilish muddati 5 yil etib belgilandi.

Ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, 12 yillik ta'limni takomillashtirish yo'lidagi tadbirlar kutilgan natijani bermadi. Yig'ilib qolgan muammolar sohani tub isloh qilishni, dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasidan foydalanish zarurligini taqazo qildi. 2017-yil umumta'lim vz o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida tub islohotlar yili bo'ldi. Xalq qabulxonalarida va Prezidentning virtual qabulxonasiga tushgan taklif va mulohazalar, shuningdek, respublika maktablaridagi bitiruvchilarning ota-onalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 9+3, ya'ni 12 yillik majburiy ta'limdan 11 yillik ta'limga o'tildi.

2017-yilning o'zida 10-sinf o'quvchilari uchun 9 mln nusxa darsliklar chop etildi va 10 mingga yaqin umumta'lim maktabida 11 yillik ta'limga o'tilgan holda o'qitish tizimi yo'lga qo'yildi. Bu akademik litsey va kasb hunar-kollejlariga qabul jarayoni bilan barobar olib borildi. Bunda ota-onalar va o'quvchilarning xohish istaklari inobatga olindi. 2016/2017-o'quv yilida umumta'lim maktabini tamomlagan 466 mingdan ortiq o'quvchining 288 mingi 10-sinfda o'qishni davom ettirdilar.

2018-yilning 20-yanvar kuni respublikadagi jami 9628 ta umumta'lim maktablarida ota-onalar, mahalla ahli va jamoatchilik uchun maktab rahbarlari tomonidan 2018-yilda ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan ustuvor vazifalari to'g'risidagi taqdimotlar tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Girls development club qizlar klubi

tomonidan I Respublika o'quvchi qizlar sammiti 2018-yilning 24-26 mart sanalarida tashkil qilindi.

Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan 2018-yil 5-aprel kuni maktab o'quvchilari uchun yangi innovatsion olimpiada tashkil etildi. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'quvchilar bilimini aniqlash maqsadida monitoring o'tkazildi. Monitoringda o'quvchilar tomonidan onlayn test topshirilishida qiyinchiliklar yuzaga kelmasligi uchun o'quvchiarda onlayn test topshirish ko'nikmasini shakllantirish va tizimdan foydalanish malakasini oshirish maqsadida namunaviy test topshirish imkoni yaratildi.

2018-yil 26-iyun kuni Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov ishtirokida brifing o'tkazildi. Brifingda Muhtaram Prezidentimiz tomonidan berilgan topshiriq va xalqimizning takliflari asosida olib borilishi rejalashtirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi. 2018 yil 2-avgust kuni Xalq ta'limi vazirining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining I-XI sinflari uchun 2018-2019 o'quv yiliga mo'ljalgan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 191-sonli buyrug'I qabul qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim muassalari uchun 2018-2019 o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasi tasdiqlandi.

2018-yil 15-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkasining "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini zamonaviy yagona maktab formasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga ko'ra, davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun zamonaviy yagona maktab formasi joriy etilgan.

2018-yil 2-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalq ta'lim tizimini yanada rivojlantirish Borasidagi islohotlar samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

2019-yilda maktablarni qurish va ta'mirlash uchun 975 mlrd. so'm yo'naltirilgan. Bundan maqsad esa O'quvchilarning zamonaviy maktablarda tahsil olishini ta'minlashdir. Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda universitetlarning ta'lim berish faoliyati yana-da takomillashtirilib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda.

Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish,

innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XII chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: “O'zbekiston”, 1998.
2. “O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida” gi qonun. Me'yoriy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi diplomatiyasi. T.: “Jahon” AA, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida tuzilgan “Harbiy kuchlar statusi shartnomasi” (Status of Forces Agreement (SOFA)). 2001 yil oktyabr.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: “O'zbekiston”, 1997.
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. T.: “O'zbekiston”, 1998.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: “O'zbekiston”, 2000. Xorijiy adabiyotlar
7. Blank S. Uzbekistan: A Strategic CHallenge to American Policy. -Carlisle Barracks, PA 17013, 2004.
8. Daly J.C.K., Meppen K.', Socor V., Starr S.F., Anatomy of a Crisis: U.S.- Uzbekistan Relations, 2001-2005. Washington, 2006.
9. Edwards J. Political Risk Insurance. Doing Business in Uzbekistan. –London, 1996.
10. Kaser M., Mexrota S. T'e Central Asian Economies after Independence. – London, 1992.